

01/14-86-son
2024-yil 24-iyul



"TASDIQLAYMAN"
Qishloq xo'jaligi vaziri

I. Abduraxmonov

" ____ " iyul 2024 yil

Vazirlik tomonidan 2024-yil II-yarim yilda amalga oshiriladigan ustuvor vazifalar
"ISH REJASI"

T/r	Amalga oshiriladigan tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ullar
Vazirga to'g'ridan –to'g'ri bo'ysunovchi tarkibiy bo'linmalar				
1.	Vazirlik tizim tashkilotlari va hududiy bo'linmalarida Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish, oldini olish bo'yicha ishlarni takomillashtirish	Vazirlikning tizim tashkilotlari va hududiy bo'linmalarida Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish, oldini olish bo'yicha ishlarni samarali tashkil etish, korrupsiyaga qarshi kurashish yuzasidan topshiriqlar ijrosini o'z vaqtida ta'minlash, ma'lumotlarni umumlashtirish maqsadida tizimdagi mas'ul xodimlar bilan doimiy aloqani yo'lga qo'yish.	Doimiy	S.Xalilov
2.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi PQ-81-son qarori ijrosini ta'minlash	Markaziy apparat, hududiy bo'linmalar va tizim tashkilotlari mas'ul xodimlari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashishda amalga oshirilgan ishlar bo'yicha ma'lumotlarni vazirlikka taqdim etib borish.	Har chorak yakuniga ko'ra	S.Xalilov
3.	Korrupsiya holatiga oid huquqbuzarliklar haqidagi kelib tushgan murojaatlarni o'z vaqtida ko'rib chiqish va ko'rilgan choralar bo'yicha tahliliy ma'lumotlarni shakllantirib borish	1.Vazirlikga kelib tushgan korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni o'rganish (masofaviy va joyga chiqqan holda) va murojaatchilarga asosli javoblar yo'llash. 2.Korrupsiya faktlariga doir murojaatlar reestrini yuritish 3.Korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni ko'rib chiqish natijalari haqidagi hisobotni rasmiy veb-saytda joylashtirish 4. Tizim tashkilotlari, hududiy bo'linmalari tomonidan korrupsiya faktlariga doir murojaatlar bo'yicha hisobotlarni taqdim qilib borish.	Doimiy Doimiy Har chorakda Har chorak yakuni bilan	S.Xalilov
4.	Xarid jarayonlarini amalga oshirishda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni oldini olish	1.Kontragentlarni tekshiruv natijalari bo'yicha xulosalar rasmiylashtirish hamda kontragentlarni tekshirish reestrda uning natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni qayd etib borish; 2.Kontragentlar tekshiruvi natijalari reestrini yuritish; 3.Tizim tashkilotlari va hududiy bo'linmalari tomonidan kontragentlar tekshiruvi bo'yicha hisobotlarni vazirlikka taqdim qilib borish.	Doimiy Doimiy Har chorak yakuni bilan	S.Xalilov

T/r	Amalga oshiriladigan tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ullar
5.	Vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlar xodimlarini malaka va ko'nikmalarini oshirish, ularda Korruptsiyaga qarshi immunitetni shakllantirish maqsadida umumiy va maxsus o'quv kurslarini tashkil etish	1.Vazirlik tizimidagi xodimlar, Korruptsiyaviy xavfi yuqori bo'lgan lavozimda ishlovchi va boshqa xodimlar, shu jumladan, ishga yangi qabul qilingan xodimlar bilan Korruptsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida umumiy va maxsus o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish; 2.Vazirlik xodimlarini bilimlarini aniqlashga imkon beruvchi test topshiriqlarini ishlab chiqish, sinov jarayonlarini o'tkazish va baholash 4. Ishga qabul qilinayotgan shaxslarga Korruptsiyani oldini olish maqsadida uning oqibatlarini tushuntirish, xizmat vazifasiga qo'yiladigan asosiy majburiyatlar, ta'qiqlar, cheklovlar, talablar, tizimning Korruptsiyaga qarshi ichki idoraviy hujjatlar mazmun-mohiyatini tushuntirish;	Har chorakda Har chorakda Doimiy	S.Xalilov
6.	Tizimda korruptsiyani oldini olish, uni keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ommaviy axborot vositalarida chiqish qilish	1.Vazirlik rahbariyati (vazir yoki vazir o'rinbosarlar) tomonidan sohada korruptsiyaga qarshi kurashish va oldini olish yuzasidan OAV orqali keng jamoatchilik oldida chiqishlar qilish; 2.Sohada amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi materiallarni vazirlikning veb-saytida va ijtimoiy tarmoq kanallarida e'lon qilib borish	Har yarim yilda Har chorakda	S.Xalilov
7.	O'zbekiston Respublikasi Manfaatlarni to'qnashuvi to'g'risidagi qonuni targ'iboti yuzasidan so'rovnomalar o'tkazish va natijalarini tahlil qilib borish	Markaziy apparat, tizim tashkilotlari va hududiy bo'linmalar xodimlari orasida (tanlama asosida) anonim so'rovnomalar o'tkazish	Avgust oyida	S.Xalilov
8.	Vazirlik markaziy apparati, tizim tashkilotlari va hududiy bo'linmalarda Korruptsiyaga qarshi kurashish va oldini olishga qaratilgan "Ochiq eshiklar" kunini o'tkazish	9-dekabr "Halqaro korruptsiyaga qarshi kurashish" kuni munosabati bilan vazirlik markaziy apparati, tizim tashkilotlari va hududiy bo'linmalarda Korruptsiyaga qarshi kurashish va oldini olishga qaratilgan "Ochiq eshiklar" kunini o'tkazilishini tashkil etish hamda OAV yoritish	dekabr oyi birinchi dekadasi	S.Xalilov
9.	Vazirlikning 2024-yil 1-iyuldagi 24-son buyrug'iga asosan Rossiya Federatsiyasi kompaniyalari ishtirokida amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarini jadallashtirish.	Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 7 iyundagi 324/12-son qaroriga asosan Rossiya kompaniyalari ishtirokidagi 5 ta investitsiya loyihalarini monitoring qilish.	2-yarim yillik davomida	R. Gabova
10.	BAA va Qatar davlatlari kompaniyalari ishtirokidagi amalga oshirilayotgan loyihalarini jadallashtirish.	1. 9 ta investitsiya loyihasining pasporti va moliyaviy ko'rsatkichlari shakllantirish. 2. 2 ta agrologistika markazlari uchun investitsiya takliflar ishlab chiqish.	2-yarim yillik davomida	R. Gabova

T/ r	Amalga oshiriladigan tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ullar
11.	Vazirlikning 2024-yil 14-iyundagi "Yevropa Ittifoqning "Ask Facility" dasturi doirasida amalga oshirilishi belgilangan chora-tadbirlarni yuqori saviyada tashkil etish to'g'risida"gi 163-son buyrug'iga asosan EU Ask Facility ishtirokida amalga oshirilayotgan "Budjetni qo'llab-quvvatlash" loyihasini amalga oshirish.	1. Yevropa Ittifoqining "Ask Facility" dasturi doirasida amalga oshiriladigan tadbirlarni yuqori saviyada tashkil etish to'g'risida"gi buyruqni amalga oshirishni muvofiqlashtirish. 2. Qishloq xo'jaligi ilmiy-tadqiqotlari milliy dasturini amalga oshirishni muvofiqlashtirish. 3. Qishloq hududlarini rivojlantirish milliy dasturini amalga oshirishni muvofiqlashtirish. 4. Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat subsidiyalarini baholash dasturini amalga oshirishni muvofiqlashtirish.	2-yarim yillik davomida	R. Gabova
12.	Vazirlikning 2024-yil 24-fevraldagi 52-son buyrug'iga asosan XMI va XHMT hisobidan moliyalashtiriladigan loyihalarni samarali amalga oshirilishini monitoring qilish.	1. Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasida strategik rivojlanish va tadqiqotlar xalqaro markazidan hisobotlarni olish. 2. Taqdim etilgan hisobotlarga asosida vazirlik rahbariyatiga takliflar kiritish.	2-yarim yillik davomida	R. Gabova
13.	Vazirlikning 2024-yil 8-apreldagi 93-son buyrug'iga asosan Strategik boshqaruvni muvofiqlashtirish qo'mitasi faoliyatini samarali tashkil etish.	1. Qo'mita yig'ilishida ko'rib chiqiladigan loyihalar ro'yxatini shakllantirish. 2. Qo'mita yig'ilishini tashkil etish. 3. Qo'mita tomonidan belgilan vazifalar ijrosini monitoring qilish.	2-yarim yillik davomida	R. Gabova
14.	Vazirlik rahbariyati tomonidan berilgan asosiy yo'nalishlar va vazifalarni bo'lim funksional vazifalari doirasida tizimli amalga oshirish.	Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar Qishloq xo'jaligi boshqarmalarining har bir bo'g'indagi lavozimlari uchun malaka talablari qayta ko'rib chiqish.	2-yarim yillikda	Sh.Xamidov, markaziy apparatning tegishli tarkibiy bo'linmalari
15.	Xodimlar sifat tarkibini yosh, malakali, xorijiy tillarni o'zlashtirgan mutaxassislar bilan ko'tarish.	Xodimlarni tanlab olish jarayonida xorijiy tillarni bilish darajasida alohida e'tibor qaratish.	2-yarim yillikda	Vazirlik markaziy apparatining barcha tarkibiy bo'linmalari
16.	Tizimdagi tashkilotlar va hududiy organlar tomonidan davlat mukofotlariga tavsiya etilgan nomzodlar hujjatlarini o'rganish, umumlashtirish va Prezident Administratsiyasiga taqdim etish.	Soha rivojiga munosib hissa qo'shib kelayotgan tizimdagi fidoyi xodimlar ro'yxatini shakllantirish.	2-yarim yillikda	Sh.Xamidov markaziy apparatning tegishli tarkibiy bo'linmalari

T/ r	Amalga oshiriladigan tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ullar
17.	Vazirlikning markaziy apparati va hududiy boshqaruv organlari xodimlarining kasbiy malakasini oshirish maqsadida nazariy-amaliy o'quv seminarlarini tashkil qilish.	Vazirlik markaziy apparati tarkibiy bo'linmalari rahbarlari bilan birgalikda har bir yo'nalishda xodimlarining kasbiy malakasini oshirish maqsadida kasbiy ma'rifat soatlari tashkil etish.	2-yarim yillikda	Sh.Xamidov markaziy apparatning tegishli tarkibiy bo'linmalari
18.	Vazirlik tizimidagi hududiy boshqaruv organlari, tashkilot, korxona va muassasalar kadrlar xizmatlari faoliyatini bevosita joylarda o'rganish, amaliy-uslubiy yordam ko'rsatish.	Ishchi guruhlarini tuzilib, joylarda amalga oshirilayotgan ishlarni o'rganish va ularga amaliy yordam ko'rsatish tizimi joriy qilish.	2-yarim yillikda	Sh.Xamidov markaziy apparatning tegishli tarkibiy bo'linmalari
19.	"YaMMT" IDAKda ish o'rnini aks ettirilganda, tegishli lavozimni egallash uchun zarur bo'lgan malakaviy talablar to'g'ri, to'liq va aniq to'ldirilishi choralarini ko'rish.	Tashkiliy tuzilmadan kelib chiqib, "YaMMT" IDAKda ish o'rnini yaratish unga xodimlarni rasmiylashtirishni tizimli tashkil etish hamda tizimdagi kamchiliklarni bartaraf etish borasida Davlat xizmatini rivojlantirish agentligiga taklif kiritish	2-yarim yillikda	Sh.Xamidov
20.	Vazirlik markaziy apparatidagi mavjud vakant lavozimlarga kadrlarni tanlab olishda "Davlat fuqarolik xizmatchilari vakant lavozimlarining yagona ochiq portali" vacancy.argos.uz orqali amalga oshirish.	Ochiq tanlov jarayonlarini tashkil etish hamda tanlov bosqichlarini o'tkazish ishlari belgilangan tartibda amalga oshirish.	2-yarim yillikda	Sh.Xamidov
21.	Vazirlik markaziy apparati rahbar va xodimlar tarkibiga oid buyruqlarni elektron dastur orqali amalga oshirilishini tashkil etish.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan Inson resurslarini boshqarish uchun ishlab chiqilgan "Hrm.argos.uz" dasturi orqali vazirlik markaziy apparati rahbar va xodimlariga oid (mehnat munosabatlari, ichki xizmat safarlari, xodimlarning ma'lumotlari va buyruqlari) xujjatlarni to'liq kiritilishini ta'minlash va rasmiylashtirish.	2-yarim yillikda	Sh.Xamidov
22.	Vazirlik nomenklaturasiga kiruvchi lavozimlar va ular bilan ishlash tizimini takomillashtirish	Vazirlik rahbariyati, markaziy apparat xodimlari tizim tashkilotlari rahbariyati lavozimlari nomenklaturasini qayta ko'rib chiqish hamda yangi tahrirda buyruq tayyorlash.	2-yarim yillikda	Sh.Xamidov, U.Burxanov
23.	Qishloq xo'jaligi xodimlari kuni munosabati bilan "Qishloq xo'jaligi fidoyisi" ko'krak nishoniga nomzodlar	Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi, ishlab chiqaruvchi, qayta ishlovchi, xizmat ko'rsatuvchi, nazorat qiluvchi davlat va xo'jalik birlashmalari hamda fermer xo'jaliklari va klasterlar vakillaridan iborat munosib nomzodlarni shakllantirish va ishchi guruh bilan muhokama qilgan holda rahbariyatga kiritish	2-yarim yillikda	Sh.Xamidov, vazirlikning tegishli tarkibiy bo'linmalari

T/ r	Amalga oshiriladigan tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ullar
24.	Qishloq xo'jaligi sohasida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni xatlovdan o'tkazish orqali tarmoqlar bo'yicha tizimlashtirish	1. Qishloq xo'jaligi sohasida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni xatlovdan o'tkazish; 2. Xatlov natijasiga ko'ra, normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	sentabr	U.Burxanov
25.	O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi tovarlarni ishlab chiqaradigan, qayta ishlaydigan va saqlaydigan eksport qiluvchi tashkilotlar va shaxslar reestrini shakllantirish va yuritish tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirish kiritish bo'yicha idoraviy-normativ hujjat loyihasini ishlab chiqish	1. O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi tovarlarni ishlab chiqaradigan, qayta ishlaydigan va saqlaydigan eksport qiluvchi tashkilotlar va shaxslar (xorijiy eksport qiluvchilar) reestrini shakllantirish va yuritish tartibi to'g'risidagi nizomni ko'rib chiqish va tahlil qilish; 2. Tahlil natijasiga ko'ra idoraviy-hujjat loyihasini tayyorlash; 3. Idoraviy-hujjat loyihasini Adliya vazirligidan ro'yxatdan o'tkazish.	sentabr	U.Burxanov
26.	O'simliklarni himoya qilish vositalarining qo'llanilishi taqiqlangan yoki cheklangan faol va nafaol ingredientlar reestrini tasdiqlash bo'yicha idoraviy-normativ hujjat loyihasini ishlab chiqish	1. O'simliklarni himoya qilish vositalarining qo'llanilishi taqiqlangan yoki cheklangan faol va nafaol ingredientlar reestrini tasdiqlash bo'yicha idoraviy-normativ hujjat loyihasini ishlab chiqish; 2. Idoraviy-hujjat loyihasini Adliya vazirligidan ro'yxatdan o'tkazish.	sentabr	U.Burxanov
27.	"Qishloq xo'jaligi kooperativi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni loyihasini Oliy Majlis palatalarida ko'rib chiqish	"Qishloq xo'jaligi kooperativi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonun loyihasini Oliy Majlis Qonunchilik palatasi hamda Senatda ko'rib chiqilishida ishtirok etish.	oktabr	U.Burxanov S.Rashidov
28.	Vazirlik tomonidan qabul qilingan ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoxud o'z kuchini yo'qotgan deb topish	1. Qishloq xo'jaligiga oid ayrim idoraviy hujjatlarni xatlovdan o'tkazish; 2. Xatlov natijasiga ko'ra, o'z ahamiyatini yo'qotganlari yuzasidan idoraviy-hujjat loyihasini tayyorlash; 3. Idoraviy-hujjat loyihalarini Adliya vazirligidan ro'yxatdan o'tkazish.	dekabr	U.Burxanov vazirlik markaziy apparati tarkibiy bo'linmalari
29.	Vazirlikka boshqa vazirlik va idoralardan kelishish uchun "Loyiha.adliya.uz" tizimi orqali kiritilgan normativ-huquqiy hujjatlarni huquqiy ekspertizadan o'tkazish	1. Vazirlikka boshqa vazirlik va idoralardan kelib tushgan normativ-huquqiy hujjatlarni Vazirlik markaziy apparati tarkibiy bo'linmalari bilan birgalikda ko'rib chiqish; 2. Kelib tushgan normativ-huquqiy hujjatlarni huquqiy ekspertizadan o'tkazish.	Doimiy	U.Burxanov vazirlik markaziy apparati tarkibiy bo'linmalari

T/ r	Amalga oshiriladigan tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ullar
30.	Vazirlik markaziy apparati tarkibiy bo'linmalari tomonidan ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjat loyihalarini amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiqligi yuzasidan huquqiy ekspertizadan o'tkazish	1.Vazirlik markaziy apparati tarkibiy bo'linmalari tomonidan ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlarni ko'rib chiqish; 2. Mazkur loyihalarni qonunchilik hujjatlariga muvofiqligi yuzasidan huquqiy ekspertizadan o'tkazish.	Doimiy	U.Burxanov vazirlik markaziy apparati tarkibiy bo'linmalari
31.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2024 yilda normativ-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024 yil 16 apreldagi 205-sonli qaroriga asosan sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish	1.Vazirlar Mahkamasining 10.09.2021 yildagi 366-sonli, 16.12.2022 yildagi 711-sonli, 14.08.1995 yildagi 315-sonli qarorlarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish; 2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.02.2017 yildagi PQ-2769-sonli hamda 07.07.2022 yildagi PQ-308-sonli qarorlarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish; 3.Korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish yuzasidan cheklislarni Adliya vazirligiga taqdim etish.	dekabr	U.Burxanov
32.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 20.04.2019 yildagi 342-son qaroriga asosan qshloq xo'jaligi sohasida huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish	1.Qishloq xo'jaligi sohasida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni hududiy bo'linmalar va tizim tashkilotlarga yuborish orqali targ'ibot tadbirlarini olib borish; 2.Qishloq xo'jaligi sohasida huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha ma'lumotlarni elektron portalga kiritib borish.	dekabr	U.Burxanov
33.	Turkiya qishloq xo'jaligi vaziri o'rinbosari Bag'jining tashrifi	1.Tashrifga tayorgarlik kurish maqsadida xujjatlarni urnatilgan tartibda ishlab chiqish 2.Tashrif davomida qishloq xo'jaligi sohasida ikki tomonlama xamkorlikni kengaytirish maqsadida muzokaralar olib borish	sentyabr	F.Xodjaeva
34.	Xorijiy hamkorlar bilan ikki tomonlama va ko'p tomonlama uchrashuvlar tashkil etish.	1. Xorijiy tomon kun tartibi va muddatlarni kelishish. 2. Uchrashuvlarni yuqori saviyada tashkil etish.	2-yarim yillicda	F.Xodjaeva
35.	Qishloq xujaligi vazirining Malayziya davlatiga tashrifi.	1.Tashrifga tayorgarlik kurish maqsadida xujjatlarni urnatilgan tartibda ishlab chiqish 2.Tashrif davomida qishloq xo'jaligi sohasida ikki tomonlama xamkorlikni kengaytirish maqsadida muzokaralar olib borish	avgust	F.Xodjaeva
36.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qozog'iston Respublikasiga oliy darajadagi tashrifi	1.Tashrifga tayorgarlik kurish maqsadida xujjatlarni urnatilgan tartibda ishlab chiqish 2.Tashrif davomida qishloq xo'jaligi sohasida tegishli xujjatlarni imzolash	avgust	F.Xodjaeva

T/r	Amalga oshiriladigan tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ullar
37.	Yaponiya davlati Bosh vazirining O'zbekistonga tashrifiga tayyorgarlik ko'rish.	1. Yaponiya bilan hamkorlik holati yuzasidan axborot tayyorlash. 2. Xorijiy tomon bilan hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqish. 3. Ma'lumot va takliflarni umumlashtirish uchun Tashqi ishlar vazirligiga yuborish.	avgust	F.Xodjaeva
38.	Mo'g'uliston Hukumatlararo komissiyasining navbatdagi yig'ilishini o'tkazish.	1. Tadbir kun tartibi, ssenariy va protokol loyihalarini ishlab chiqish. 2. Hujjat loyihalari hamda tashkiliy masalalarni xorijiy tomon bilan kelishish, tadbirni o'tkazish va hisobot taqdim etish.	sentabr	F.Xodjaeva
39.	Ozarbayjon Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasiga oliy darajadagi tashrifi	1. Tashrifga tayyorgarlik kurish maqsadida xujjatlarni urnatilgan tartibda ishlab chiqish. 2. Tashrif davomida qishloq xo'jaligi sohasida tegishli xujjatlarni imzolash.	sentabr	F.Xodjaeva
40.	Germaniya kansleri O.Sholsning O'zbekistonga rasmiy tashrifi hamda O'zbekiston Prezidentining 17 sentabr kuni Astana shahrida (Qozog'iston) "Germaniya - Markaziy Osiyo" formatidagi 2-sammitda ishtiroki bo'yicha tayyorgarlik ko'rish	1. Tegishli xujjatlarni ishlab chiqish 2. Hujjat xamda tashkiliy masalalarni xorijiy tomon bilan kelishish 3. tadbirni o'tkazish	sentabr	F.Xodjaeva
41.	Toshkent shahrida Xalqaro paxta tadqiqot konferensiyasini o'tkazish.	1. Tegishli hujjatlarni ishlab chiqish. 2. Tadbir doirasidagi uchrashuvlarni tashkil etish va yuqori saviyada o'tkazish.	oktabr	F.Xodjaeva
42.	O'zbekiston delegatsiyasining Malayziyaga oliy darajadagi tashrifini tashkil etish.	1. Tegishli xujjatlarni ishlab chiqish 2. Hujjat xamda tashkiliy masalalarni xorijiy tomon bilan kelishish 3. Tadbirni o'tkazish	oktabr	F.Xodjaeva
43.	Fransiya Prezidentining Emonuel Makronni noyabr oyida O'zbekistonga amalga oshirayotgan tashrifiga tayyorgarlik ko'rish.	1. Tegishli hujjatlarni ishlab chiqish 2. Hujjat hamda tashkiliy masalalarni xorijiy tomon bilan kelishish 3. Tadbirni o'tkazish	noyabr	F.Xodjaeva
44.	Polshaning Qishloq xo'jaligi va qishloqni rivojlantirish vazirligi bilan "Qishloq xo'jaligi sohasida hamkorlik bo'yicha ishchi guruhning 1-yig'ilishini" o'tkazish.	1. Tegishli hujjatlarni ishlab chiqish 2. Hujjat xamda tashkiliy masalalarni xorijiy tomon bilan kelishish 3. Tadbirni o'tkazish	oktabr	F.Xodjaeva

T/r	Amalga oshiriladigan tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ullar
45.	O'zbekiston va Germaniya davlatlarining o'zaro hamkorligini yanada rivojlantirish hamda Yevropa bozorlarida o'zbek qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini keng targ'ib etish maqsadida 2025-yil 17-26-yanvar kunlari Germaniyada o'tkazilishi rejalashtirilayotgan "Yashil haftalik - 2025" xalqaro qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sohasidagi ko'rgazmada vazirlik delegatsiyasi vakillarining ishtiroki ta'minlash maqsadida zaruriy xujjatlarni tayorlash	1.Tegishli hujjatlarni ishlab chiqish 2. Hujjat xamda tashkiliy masalalarni xorijiy tomon bilan kelishish 3. Tadbirni o'tkazish	dekabr	F.Xodjaeva
46.	Rossiya Federatsiyasi bilan Qishloq xo'jaligi bo'yicha quyi kommissiya yig'ilishini o'tkazish	1. Tegishli hujjatlarni ishlab chiqish 2. Hujjat hamda tashkiliy masalalarni xorijiy tomon bilan kelishish 3. Tadbirni o'tkazish	oktabr	F.Xodjaeva
47.	Rossiya Federatsiyasi bilan Xukumatlararo komissiyasining navbatdagi yig'ilishini o'tkazish	1. Tegishli hujjatlarni ishlab chiqish 2. Hujjat hamda tashkiliy masalalarni xorijiy tomon bilan kelishish 3. Tadbirni o'tkazish	oktabr	F.Xodjaeva
48.	Xorijiy xamkor davlatlar bilan yakuniy Xukumatlararo komissiya yig'ilishlarini o'tkazish	1.Tegishli xujjatlarni ishlab chiqish 2. Hujjat xamda tashkiliy masalalarni xorijiy tomon bilan kelishish 3. Tadbirni o'tkazish	dekabr	F.Xodjaeva
49.	Sohada joriy yil 9 oyda erishilgan natijalar bo'yicha tahliliy axborot tayyorlash.	1. Ma'lumotlarni umulashtirish va tahlil qilish. 2. Tayyorlangan axborotlarni ommaviy vositalarda e'lon qilish uchun matbuot kotibiga taqdim etish.	oktabr	A.Bazarov F.Babadjanov
50.	Joriy yil yakuni bilan amalga oshirilgan ishlar hamda erishilgan natijalar bo'yicha tahliliy axborot tayyorlash.	1. Ma'lumotlarni umulashtirish va tahlil qilish. 2.Erishilgan natijalar bo'yicha Hukumatga axborot kiritish. 3. Tayyorlangan axborotlarni ommaviy vositalarda e'lon qilish uchun matbuot kotibiga taqdim etish.	dekabr	A.Bazarov F.Babadjanov
Dehqonchilik va tabiiy resurslarni boshqarish kompleksi				
51.	Joriy yil paxta hosili uchun yetishtirilayotgan g'o'za maydonlarida agrotexnik tadbirlarni o'z muddatlarida sifatli amalga oshirishni tashkil etish.	1. G'o'za qator oralariga ishlov berish va oziqlantirishni o'z muddatida, sifatli o'tkazish. 2. G'o'zani sharbat usulida tunda sug'orish hamda chilpish (chekanka) tadbirlarini sifatli o'tkazish. 3. Kunlik monitoring yuritish	iyul-avgust	Vazir o'rinbosari A.Qosimov K.Sabirov, J.Abduzuxurov

T/r	Amalga oshiriladigan tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ullar
52.	Urug'lik paxta maydonlarida dala aprobatsiya ko'riklarini o'tkazish.	1. Urug'lik maydonlarda dala aprobatsiyasini o'tkazish bo'yicha uslubiy qo'llanmalarni joylarga yetkazish va aprobatsiya tadbirlarini o'tkazish. 2. Aprobatsiya natijalari asosida kelgusi yil hosili uchun sifatli urug'lik paxta tayyorlash.	avgust-sentabr	Vazir o'rinbosari A.Qosimov J.Abduzuxurov, J.Boboev, Sh.Mamajonov
53.	Yetishtirilgan paxta xomashyosini qisqa muddatlarda yig'ib-terib olish.	1. Respublika monitoring guruhi (shtabi)ni tashkil etish va hududlarda paxtani ochilish darajasidan kelib chiqib, terim grafiklarini ishlab chiqish. 2. Yig'im-terim mavsumida qatnashadigan texnika va tirkamalarni mavsumga shay holatga keltirish. 3. Paxta terimida mexanizatsiya darajasini 30-32 foizga yetkazish. 4. Mavsumda qatnashadigan terim otryadlari va terimchilar ro'yxatini shakllantirish hamda ularga zarur shart-sharoitlar yaratish bo'yicha monitoring ishlarini olib borish.	avgust-oktabr	Vazir o'rinbosari A.Qosimov K.Sabirov, J.Abduzuxurov, Q.Ismoilov
54.	Hududlarda 90 sm sxemada ekilgan paxta maydonlarini qisqartirib, 76 sm qo'shqator sxemada ekishni kengaytirish yuzasidan dastur ishlab chiqish.	1. Hududlardan 90 sm ekilgan maydonlarni qisqartirish va 76 sm qo'shqator ekish sxemalarini kengaytirish yuzasidan takliflarni olish. 2. 76 sm sxemada chigit ekish bo'yicha texnikalar ro'yxatini shakllantirish va yetishmaydigan qismi bo'yicha takliflar tayyorlash. 3. 90 sm sxemada ekilgan maydonlarni qisqartirish yuzasidan 2025-2027 yillarga mo'ljallangan dastur ishlab chiqish.	noyabr	Vazir o'rinbosari A.Qosimov K.Sabirov, J.Abduzuxurov A.Vaxabov, Sh.Otajonov
55.	2025-yil hosili uchun respublika hududlarida kuzgi boshqoli don ekinlarini joylashtirish va ekilishini tashkil etish.	1. Hududlardan kuzgi boshqoli don ekinlarini joylashtirish bo'yicha takliflar olish, talab etiladigan urug', mineral o'g'it va YoMM hajmlari hamda ularga ajratiladigan mablag'larni hisoblash. 2. Hukumat bayon loyihasini ishlab chiqish hamda tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishib, tasdiqlatish uchun Hukumatga kiritish. 3. G'alla hosildorligini oshirish maqsadida: - 110 ming hektarni lazerli tekislash. - 600 ming hektarga yangi ertapishar, don sifat ko'rsatkichlari va hosildorligi yuqori bo'lgan nav ekish. - 210 ming ga g'allani zamonaviy seyalkalar orqalida ekish. 4. G'alla ekilgan maydonlarda o'z vaqtida va sifatli agrotexnik tadbirlarni o'tkazish. 5. ITI olimlari bilan ilmiy tavsiyalar tayyorlab, joylarda seminarlar o'tkazish.	avgust sentabr sentabr-oktabr mavsum davomi doimiy	Vazir o'rinbosari A.Qosimov K.Sabirov, J.Abduzuxurov, Q.Ismoilov, S.Omarov

T/r	Amalga oshiriladigan tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ullar
56.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.02.2024-yildagi PF-36-son Farmoniga asosan: - sholida (137,2 ming ga) o'rtacha hosildorlikni 47,2 s/ga yetkazish. - moyli ekinlarda (180 ming ga) o'rtacha hosildorlikni 16,2 sentnerga yetkazish.	1. Takroriy maydonlarda 101,2 ming ga sholi, 36 ming ga moyli (<i>kungaboqar va kunjut</i>) ekish ishlarini yakunlash. Bunda, 35 foiz sholini ko'chat usulida ekish. 2. Sholi va moyli ekinlar ekilgan maydonda agrotexnik tadbirlarni sifatli amalga oshirish va monitoring yuritish. 3. Yetishtirilgan sholi va dukkakli don hosilini nes-nobud qilmasdan o'rim-yig'im ishlarini amalga oshirish.	iyul mavsum davomida noyabr	Vazir o'rinbosari A.Qosimov K.Sabirov, J.Abduzuxurov , F.Qo'ziev, Q.Ismoilov, S.Omarov
57.	Suv resurslaridan foydalanish bo'yicha xorijiy tajribalarni o'rganib chiqish hamda amaliyotga tadbiq qilish yuzasidan rahbariyatga taklif kiritish.	1. Suv resurslaridan foydalanish bo'yicha xorijiy davlatlar tajribalarini o'rganish hamda respublika iqlim sharoitiga mos zamonaviy innovatsion sug'orish texnologiyalarini joriy qilish bo'yicha pilot loyiha amalga oshirish. 2. Pilot loyihaning samaradorligi yuzasidan rahbariyatga asoslangan ma'lumot kiritish.	sentabr-oktabr dekabr	Vazir o'rinbosari A.Qosimov F.Qo'ziev
58.	G'alladan va ertaki ekinlardan bo'shagan maydonlarga 924 ming ga takroriy ekinlar ekishni tashkil etish.	1. Hududlarda ekilmay qolayotgan ekinlarni qisqa muddatlarda ekish ishlarini yakunlash. 2. Ekinlarni ekish bo'yicha kunlik monitoring olib borish va rahbariyatga axborot kiritib borish. 3. Ekin maydonlarida agrotexnik tadbirlarni o'tkazish hamda yetishtirilgan hosilni nes-nobud qilmasdan yig'ib olish.	iyul mavsum davomida	K.Sabirov, A.Ergashev
59.	2025-yil hosili uchun avgust piyoz va sarimsoqpiyoz va to'qsonbosti usulida sabzavot ekinlarini ekishni tashkil etish.	1. Hududlardan 2025-yil hosili uchun avgust-sentabr oylarida piyoz va sarimsoqpiyoz hamda noyabr-dekabr oylarida to'qsonbosti ekinlarini joylashtirish bo'yicha taklif olish. 2. IT'lar olimlari va soha mutaxassislarni jalb qilgan holda tavsiyalar ishlab chiqish va joylarda o'quv seminarlari o'tkazish. 3. Yer tayyorlash va ekishni tashkil etish, agrotexnik tadbirlarni o'tkazish hamda monitoring yuritish.	iyul avgust-dekabr mavsum davomida	Vazir o'rinbosari A.Qosimov K.Sabirov, A.Ergashev N.Abdullaev
60.	Kuz mavsumida jami 51 ming ga, shundan 10 ming ga yangi mevali bog' va 41 ming ga uzumzorlar barpo etish.	1. Ko'chat yetishtiruvchilar bilan mevali va uzum ko'chatlari xarid qilish bo'yicha shartnomalar tuzilishini va yetkazib berilishini tashkil qilish. Bunda, 7,8 mln dona sertifikatlangan meva ko'chatlari yetkazib berilishini ta'minlash. 2. Mavsumda yerlarni ekishga tayyorlash, ko'chat ekish ishlarini tashkil etish va monitoring yuritish. 3. Mevali bog' va uzumzorlar barpo etish, parvarishlash bo'yicha joylarda seminarlar tashkil etish.	Sentabr-noyabr oktabr-noyabr mavsum davomida	Vazir o'rinbosari A.Qosimov K.Sabirov, A.Ergashev N.Abdullaev

T/ r	Amalga oshiriladigan tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ullar
61.	2024-yil hosilidan 12,1 mln tonna sabzavot, 3,7 mln tonna kartoshka, 2,8 mln tonna poliz, 3,3 mln tonna meva va 1,9 mln tonna uzum mahsulotlarini yetishtirish.	1. Ekilgan sabzavot poliz va kartoshka ekinlariga o'z vaqtida agrotehnika tadbirlarini o'tkazish bo'yicha monitoring yuritish. 2. Tegishli olimlar va soha mutaxassislarni jalb qilgan holda ekin turlariga asosan tavsiyalar ishlab chiqish va joylarda o'quv seminarlari o'tkazish, mahsulot yetishtiruvchilarga yetkazish. 3. Mahsulotlarni yetishtirish muddatlaridan kelib chiqib grafiklar ishlab chiqish hamda yetishtirilgan hosilni nes-nobud qilmasdan yig'ishtirib olishni tashkil etish.	mavsum davomida	Vazir o'rinbosari A.Qosimov K.Sabirov, A.Ergashev N.Abdullaev
62.	Meva-sabzavotchilikni rivojlantirish bo'yicha 3 ta normativ-huquqiy hujjat loyihalarini ishlab chiqib, Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	1. Normativ-huquqiy hujjat loyihalarini ishlab chiqish, tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishish. <i>[1. Issiqxona xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha. 2. Respublikada agrosanoat sohasiga yangi bozor mexanizmlarini joriy etish hamda sanoatlashgan bog' va tokzorlarni barpo qilish. 3. Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Agrosanoatni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish]</i> 2. Normativ-huquqiy hujjat loyihalarini Adliya vazirligida huquqiy ekspertizadan o'tkazish va Hukumatga kiritish.	avgust sentabr	Vazir o'rinbosari A.Qosimov K.Sabirov, A.Ergashev N.Abdullaev
63.	2025-yilda yangi barpo etiladigan mevali bog' va uzumzorlar hamda rekonstruksiya qilinadigan samarasiz bog' va uzumzorlar bo'yicha takliflar ishlab chiqish.	1. Yangi mevali bog' va uzumzor barpo etadigan tashabbuskorlarni manzilli ro'yxatini shakllantirish: 2. Hududlarning tuproq-iqlim sharoitiga qarab mevali bog'larni plantatsiya shaklida joylashtirish 3. Talab etiladigan ko'chatlar, moddiy-resurslar va mablag'lar hisob-kitobini kilish. 4. Xududlarda mevali bog' va uzumzorlarni barpo etish uchun ekin yer maydonlarini aniqlash. 5. Lalmi va yangi o'zlashtiriladigan yerlarda borpo etiladigan mevali bog' va uzumzorlarda tomchilatib sug'orish texnologiyalarni joriy qilish, sug'orish tizimini (tik quduqlar burg'ulash) joriy qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.	noyabr	Vazir o'rinbosari A.Qosimov K.Sabirov, A.Ergashev N.Abdullaev
64.	Qishloq xo'jaligi yerlaridan oqilona foydalanish tartibini belgilash.	1. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan oqilona foydalanish borasida xorij tajribasini o'rganish, tahlil qilish. 2. Tartib loyihasini ishlab chiqishga tizim tashkilotlari (<i>"O'zdamerloyiha"</i> DILJ, <i>Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti va boshqalar</i>)ni jalb etish, muhokama qilish. 3. Loyihaning dastlabki tahririni shakllantirish.	dekabr	Vazir o'rinbosari A.Qosimov K.Sabirov, O.Soatov

T/r	Amalga oshiriladigan tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ullar
65.	"Yaylovlar va ulardagi yer osti suvlarini muhofaza qilish strategiyasi" loyihasini ishlab chiqish.	1. Yaylovlarni muhofaza qilish va ulardagi yer osti suvlaridan samarali foydalanish bo'yicha xorij tajribasini o'rganish, tahlil qilish, mahalliy va xorijiy ekspertlarni jalb etish. <i>Loyihada qonunchilik hujjatlarini xatlovdan o'tkazish, yaylovlarni taifalash, raqamli xaritasini yaratish, yaylovda chorva mollari bosimini kamaytirish, yaylov urug'chiligini rivojlantirish, yer osti suvlaridan foydalanish me'yorlarini belgilash kabilarni nazarda tutish.</i> 2. Strategiya loyihasini Hukumatga kiritish.	dekabr	Vazir o'rinbosari A.Qosimov K.Sabirov, M.Sayfiev, O.Soatov I.Ergashev
66.	Respublikada 127 ming ga paxta maydonlarida tuproq unumdorligi va hosildorlikni oshirish choralari ko'rish.	1. Tanlab olingan tumanlardagi paxta maydonlarida tuproq unumdorligi va hosildorlikni oshirish. 2. Subsidiya olish uchun kelib tushgan arizalarni ko'rib chiqish va xulosalar berish, ijobiy xulosa olgan talabgorlarga subsidiya ajratish.	dekabr	Vazir o'rinbosari A.Qosimov K.Sabirov, O.Soatov
67.	Tuproqdagi gumus miqdorini oshirish va sho'rlanishni kamaytirish bo'yicha tajribalarni o'tkazish uchun 6,5 ming ga ko'rgazmali maydonlar tashkil etish.	1. Ko'rgazmali maydonlar tashkil etish uchun har bir viloyatdan 500 ga yerlarni tanlash. 2. Talab etiladigan mablag'larni hisob-kitob qilish hamda xarajatlarni XMI hisobidan moliyalashtirish choralari ko'rish.	dekabr	Vazir o'rinbosari A.Qosimov O.Soatov , A.Ubaydullaev
68.	Respublika bo'yicha sug'oriladigan yerlarda tuproq sifatini baholash, tuproq sho'rlanish kartogrammalari va agrokimyoviy kartogrammalarni tuzish ishlarini amalga oshirish.	1. Sug'oriladigan 821 ming ga yerlarda tuproq bonitirovkasi hamda tuproq xaritalarining korrektilirovkasi o'tkazish. 2. Sug'oriladigan 620 ming ga yerlarda tuproq sho'rlanish kartogrammalarini tuzish. 3. Sug'oriladigan 807 ming ga yerlarda tuproq agrokimyoviy tadqiqot ishlarini bajarish va agrokimyoviy kartogrammalar tuzish.	dekabr	Vazir o'rinbosari A.Qosimov O.Soatov Sh.Bobomurodov
69.	PQ-91-son (28.02.2024-yil) qarorining 2-ilova 7-bandi ijrosi bo'yicha "Muomalaga chiqarilayotgan qishloq va o'rmon xo'jaligi transport vositalari va mashinalarining xavfsizligi to'g'risidagi texnik reglamentni tasdiqlash haqida"gi qaror loyihani Hukumatga kiritish.	1. Hukumatning "Muomalaga chiqarilayotgan qishloq va o'rmon xo'jaligi transport vositalari va mashinalarining xavfsizligi to'g'risidagi texnik reglamentni tasdiqlash haqida"gi qaror loyihani ekspertiza komissiyasidan o'tkazish. 2. Qaror loyihani tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2024-yil iyul	Vazir o'rinbosari A.Qosimov K.Sabirov, Q.Ismoilov M.Xakimov
70.	Hududlarda 2024-yil paxta yig'im-terim hamda 2025-yil hosili uchun boshqoli don ekish ishlarida qatnashadigan qishloq xo'jaligi texnika va agregatlari mavsumga tayyorlash ishlarini tashkil etish.	1. Qishloq xo'jaligi texnika va agregatlarini dislokatsiya joylarini aniqlash, to'liq yig'ish va xatlovdan o'tkazish. 2. 2024-yil paxta yig'im-terimida qatnashadigan texnikalarni to'liq ta'mirlab, mavsumga shay holatga keltirish. 3. 2025-yil hosili uchun boshqoli don ekishda qatnashadigan texnikalarni to'liq ta'mirlab mavsumga shay holatga keltirish.	iyul avgust sentabr	Vazir o'rinbosari A.Qosimov K.Sabirov, Q.Ismoilov A.Vahobov

T/ r	Amalga oshiriladigan tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ullar
71.	Agrar sektorni zamonaviy va resurs tejamlor qishloq xo'jaligi texnikalari bilan ta'minlash.	1. Joriy yil 2-yarim yillikda 2 828 ta qishloq xo'jaligi texnika va agregatlarini sotib olish bo'yicha ishlab chiqaruvchi va mahsulot yetishtiruvchi o'rtasida shartnomalar tuzilishini tashkil etish. 2. Hududlarda 2025-yil uchun qishloq xo'jaligi texnikalari bo'lgan talab hamda buyurtmalar portfelini nomma nom shakllantirish. 3. Ma'lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirish.	Xar oyda sentabr doimiy	Vazir o'rinbosari A.Qosimov K.Sabirov, Q.Ismoilov
72.	Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda 76 sm sxemada qo'sh qator ekadigan chigit ekish seyalkalar sonini 600 taga yetkazish choralari ko'rish.	1. Hududlarda 76 sm sxemada qo'sh qator ekadigan chigit ekish seyalkalariga bo'lgan talabni aniqlash. 2. Paxta-to'qimachilik klasterlari va fermer xo'jaliklari ishlab chiqaruvchilar o'rtasida shartnomalar tuzilishini tashkil etish	sentabr-oktabr	Vazir o'rinbosari A.Qosimov K.Sabirov, Q.Ismoilov
73.	2025-yil hosili uchun kuzgi shudgorlash grafigini ishlab chiqish va mavsumga yuqori unumli haydov traktorlarini jalb etish ishlarini tashkil etish.	1. 2025-yil hosili uchun kuzgi shudgorlanadigan maydonlarni belgilash. 2. Kuzgi shudgorlash grafigini ishlab chiqish. 3. Mavsumga yuqori unumli haydov traktorlarini jalb etish ishlarini tashkil etish. 4. Shudgorlashning maqbul muddatda sifatli o'tkazilishiga erishish.	oktabr oktabr -noyabr	Vazir o'rinbosari A.Qosimov K.Sabirov, Q.Ismoilov
Oziq-ovqat xavfsizligi va sanoati kompleksi				
74.	2024-yil yakuniga qadar 93,2 trln. so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishini ta'minlash.	1. Har oy ishlab chiqarish prognoz ko'rsatkichlarini bajarilishini monitoring qilib borish. 2. Ishlab chiqarish jarayonida vujudga kelayotgan muammolar tuman (shahar), viloyat yoki respublika darajasida xal etish bo'yicha zaruriy choralarni ko'rish.	Doimiy	Vazir o'rinbosari A.Qosimov I. Xolmirzaev, B. Inakov
75.	Oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish bo'yicha hududlarda tadbirkorlar tomonidan loyihalarni amalga oshirishga ko'maklashish.	1. Loyihalarni ishga tushirishni tarmoq jadvalagi muvofiq doimiy monitoring qilish va aniqlangan muammolarni bartaraf etish bo'yicha taklif kiritish. 2. Tijorat banklari bilan moliyalashtirish choralari ko'rib borish. 3. Joriy yil 3 - chorakda 923,9 mlrd so'mlik 69 ta , 4 - chorakda 6,4 trln so'mlik 231 ta loyihani ishga tushirish bo'yicha monitoring yuritish. 4. Meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan 51 ta tumanda meva-sabzavotni shok usulida muzlatishni yo'lga qo'yish bo'yicha yangi loyihalarni amalga oshirishni yuzasidan monitoring yuritish va muammolarni hal etish.	Doimiy Har oy yakunida Belgilangan muddatlarda Doimiy	Vazir o'rinbosari A.Qosimov I. Xolmirzaev, B. Inakov

T/r	Amalga oshiriladigan tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ullar
76.	Oziq-ovqat sanoatiga xorijiy brendlarni jalb etish bo'yicha tizimli ish tashkil etish.	1. Xorijiy korxonalar bilan muzokaralar o'tkazish va ular tomonidan ko'tarilgan muammo va takliflarni shakllantirib, rahbariyatga taqdim etish. 2. Muammolarni bartaraf etish, takliflarni amalga oshirishda amaliy yordam berib borish. 3. AQShning Kraft Heinz, Vetnamning "Mareven Food Holding", Fransiyaning "Bonduelle" va Singapurning Wilmar International Limited kompaniyalari brendini jalb etishga doimiy ish olib borish.	avgust Xar oy yakunida Doimiy Belgilangan muddatlarda	Vazir o'rinbosari A.Qosimov I. Xolmirzaev, B. Inakov
77.	"Oziq-ovqat xavfsizligi va sog'lom ovqatlanishning 2030-yilgacha mo'ljallangan strategiyasi", uni amalga oshirishning "yo'l xaritasi" tasdiqlash, ijrosi nazoratga olish.	1. Muvofiqlashtiruvchi kengashga tasdiqlash uchun kiritish. 2. Strategiya va uni amalga oshirishning "yo'l xaritasi"dagi topshiriqlarni amalga oshirilishini monitoring qilish. 3. Strategiya va "yo'l xaritasi"ni amalga oshirish doirasida Muvofiqlashtiruvchi kengashning ishchi organi faoliyatini tahliliy va tashkiliy jihatdan ta'minlash.	har chorakda	Vazir o'rinbosari A.Qosimov I. Xolmirzaev, B.Inakov, O.Jumaev
78.	Go'sht va go'sht mahsulotlari hamda sut va sut mahsulotlari xavfsizligiga doir texnik reglamentlarni takomillashtirish.	1. Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasini manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishish: go'sht va go'sht mahsulotlari xavfsizligiga doir texnik reglamentni; sut va sut mahsulotlari xavfsizligiga doir texnik reglamentni takomillashtirish bo'yicha qaror loyihalarini tasdiqlash uchun Hukumatga kiritish.	iyul avgust	Vazir o'rinbosari A.Qosimov I. Xolmirzaev, B.Inakov, O.Jumaev
